

Marg'uba Abdullayeva

(Toshkent, O'zbekiston)
abdullayeva@navoiy-uni.uz

“Boburnoma” va “Shajarayi turk”da muallif obrazi

Abstrakt

Tadqiqotda davlat arbobi, shoh va shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur va Abulg'ozī Bahodirxonning tarixiy-memuar asarlaridagi muallif obrazi qiyosiy o'rganilgan. Tarixiy voqealarni tasvirlashda xolislik, muallif “men”i, voqelikka munosabat, muallif dunyoqarashi kabi masalalar tahlil etilgan. Memuar asarlar “Boburnoma” va “Shajarayi turk”da mualliflarning tarixiy ma'lumotlarni bayon etishdagi o'ziga xosliklari tadqiq etilgan.

“Boburnoma”da Bobur, “Shajarayi turk”da Abulg'ozī obrazlarini ularning har ikkalasi hayotida yuz bergan toj-taxt uchun kurash, hukmdor sifatida mamlakatni boshqarish, shu bilan birga ijod qilishlari bog'lab turadi. Shu sabab Bobur bilan Abulg'ozī boshqa davrlarda, boshqa mamlakatlarda toj-taxt uchun kurash olib borgan bo'lsalar-da, o'z yurtini qo'lga kiritishga xizmat qilgan qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Bobur “Boburnoma”da o'zining tug'ilganidan to umrining oxirigacha bo'lgan hayoti haqida bir sahifada ma'lumot bermaydi, balki asarni taxtga chiqishidan boshlaydi. Abulg'ozī esa o'zi haqida asar muqaddimasida hech narsa demaydi, balki asarning yozilish sababiga qisqa to'xtalib o'tadi. Birinchi bobni esa qadimdan (Odam Atodan) boshlaydi. O'zi haqidagi to'liq ma'lumotlarni asarning so'nggi boblarida batafsil yoritadi.

Kalit so'zlar: tarixiy voqelik, memuar asarlar, shoh, shoir, umumiylik, o'ziga xoslik, muallif “men”i, muallif obrazi.

Author Image in “Baburnoma” and “Shajarai turk”

Abstract

The image of the author, historical and architectural works of the statesman, king and poet - Zahiriddin Muhammad Babur and Abulgazi Bahodirkhan is explored in this study. In describing historical events, such issues as objectivity, author's personal “I”, attitude to reality, author's worldviews are analyzed. The architectural works – “Baburnoma” and

“Shajarai Turk” – explore the peculiarities of the authors in presenting historical information.

In “Baburnoma”, Babur, in “Shajarai Turk”, the images of Abulgazi are linked to the struggle for the crown, both in their lives, as rulers of their countries, and at the same time, their creativity is grounded. For this reason, Babur and Abulgazi appear to be heroes who, although lived at different times and in different countries, have fought for the crown throne. Babur does not provide even a single page at information in his “Baburnoma” about the period from his birth to his death, but he begins his work on the throne. We can find out more about Babur by reading the entire book “Baburnoma”. Abulgazi does not say anything about himself in the preface of the work, but briefly explains the reason for writing the work. The first chapter begins with the antiquity. He describes in details in the last chapters of his work.

Key words: historical realities, architectural works, king, poet, general, original, author’s “I”, author’s image.

Kirish

“Boburnoma” va “Shajarayi turk” asarlari mualliflarning maqsadi, obrazlar tizimi, g’oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko’ra ko’plab umumiy jihatlariga ega. D.Dyurishin fikricha, “qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiq yo’llari o’xshashlik va farqli jihatlarni faqatgina adabiy yo’nalishlar, janr va janr ko’rinishlari doirasida-gina emas, balki g’oyaviy, psixologik yo’nalish, personajlar tavsifi, kompozitsiya va syujet qurilishi, motivlar, obrazlar tizimi, badiiy asar asosini tashkil etuvchi unsurlarni nazarda tutgan holda ham tahlil qilish”da aks etadi [Дюришин 1979, 183]. Bu o’rinda olim badiiy asar tahlili jarayonidagi qiyosiy tadqiq usullarini nazarda tutgan bo’lsa-da, bevosita tarixiy-memuar asarlar uchun ham qo’llash samarali natijalar beradi.

“Boburnoma” va “Shajarayi turk”da turli voqea-hodisalar, tarixiy sharoit, tarixiy shaxslar, shahar va qishloqlar tasviri, umuman, XV asr oxiri, XVI va XVII asr muhitini qamrab olmasin, bu tasvirlarning asosiysi mualliflar hayoti bilan bevosita bog’liq ravishda aks ettirilgan. Shuning uchun ham asarlar o’ziga xos memuarlik kasb etgan. Ikki asarning ham bosh qahramoni mualliflarning o’zlari hisoblanadi. “Boburnoma” va “Shajarayi turk” asarlarining boshidan to oxirigacha Bobur va Abulg’ozi goh muallif sifatida, goh tadbirli sarkarda, goh mehribon ota, goh she’riyat sohibi, goh o’tkir tarixchi, gohida mohir siyosatchi sifatida namoyon bo’ladi.

Shu o’rinda, haqli bir savol tug’iladi. Xo’sh, hayotdagi Bobur va

Abulg'ozidan asarlaridagi Bobur va Abulg'ozni obrazlari nimasi bilan farq qiladi? Umuman, ular o'rtasida farq bormi? Mualliflar asarlarida obrazlarini qay darajada aks ettira olgan? Bu kabi savollarga javob berish uchun har ikki asardagi muallif shaxsiga jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Badiiy asarda "men"ning namoyon bo'lish shakllari

Adabiyotshunoslikda "men" tushunchasi ilk bora N. G. Chernishevskiyning Rostopchina she'rlari haqida yozgan taqrizida qo'llanilgan. Taqriz muallifi badiiy asardagi "men"ning namoyon bo'lishini shunday tasniflagan edi: "1) lirik she'rning "men"i har doim ham bu she'rni yozgan muallif "men"ining o'zi bo'lavermaydi; 2) lirik she'rdagi "men"da mavjud bo'lgan qiliqlar, holatlar va hislarni shoirning o'ziga nisbat berishda nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak va bu lirik "men"ning his-tuyg'ulari va harakatlarini ijobiy tarixiy-adabiy omillar orqali tushunishdan o'zga narsa emas" [Чернишевский 1974, 455-457]. Y. N. Tinyanov lirik "men"ni "lirik qahramon" atamasi bilan o'zgartirdi va ilk marta adabiyotshunoslikka olib kirdi [Тиньянов 1977, 118].

"Lirikada "men" (goho "biz") qahramon bo'lib qolar ekan, u hamma shoir ijodida ham "men" tarzida qoladi, ya'ni tashqi shakl jihatidan emas mazmunan o'zgaradi. Binobarin, "men" har bir davr lirikasida, har bir milliy lirikada o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Lirik qahramon haqida gapirganda, uning tarkibida "oshiq obrazi", "rind mutafakkir obrazi" to'g'risida so'zlash holatlari ham uchraydi [Ўзбек адабиёти тарихи 1977, 118]. Bizningcha, asosiy qahramon bitta, u monologik nutq egasi "men"dir, bundan tashqari gap o'zbek lirikasi haqida borar ekan, unda ba'zi lirik personajlar bo'lishi mumkin, masalan, yor, raqib, shayx, rafiq, soqiy, zohid, mash-shota, mug'anniy va boshqalar" [Адабий тип, 1987, 63].

Lirik "men" va tarixiy nasriy asarlardagi muallif "men"i o'rtasida ma'lum farq bor. Lirik "men"da shoir tarjimai holi voqealari bilan emas, balki ularning estetik in'ikosi hamda muallif "men"ining badiiy tarzidagi o'zgacha ifodasi bilan ajralib turadi. Lirikada "lirik qahramon" "men"i yetakchilik qilsa, tarixiy nasriy asarlarda yakuniga qadar muallif "men"i yetakchilik qiladi.

XV asrda muallifning "men"i Navoiy ijodida ko'proq "Mahbub ul-qulub", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" va "Munshaot"da ifodalangan bo'lsa, XVI asrga kelib Bobur "Vaqoyi"da o'z takomiliga yetdi. Bu an'anani keyinchalik Abulg'oz Bahodirxon o'z asari misolida davom ettirdi.

O'zbek adabiyotshunosligida ilk bor H.Qudratullayev tomonidan tarixiy sarguzasht asarlarda badiiy tasvir, muallifning “men”i va davr adabiy estetikasining “men”ga qo'ygan talabi tajriba tariqasida o'rganildi [Қудратуллаев 1998, 355]. Mazkur tadqiqotdan xulosa chiqargan holda “Boburnoma” va “Shajarayi turk” asarlaridagi ko'plab jihatlariga muallif “men”i nuqtayi nazaridan yondashishga harakat qildik. Jumladan, obraz yaratish salohiyati, tarixiy voqea-hodisalarga, tarixiy shaxslarga munosabat masalasi muallif “men”idan kelib chiqib tahlil etildi.

“Boburnoma” va “Shajarayi turk”ning asosiy qahramonlari

Har ikki asarning asosiy qahramonlari – Bobur va Abulg'ozī ideal shaxs tarzida emas, balki ko'p xususiyatli, turli faoliyatli real murakkab shaxs sifatida ko'zga tashlanadi. Asar bosh qahramonlari Bobur va Abulg'ozī bosib o'tgan hayot yo'li, ziddiyatli holatlarning ko'pligi, toj-taxt uchun kurash jarayoni, hukmdor sifatida mamlakatni boshqarish, shuningdek, qalam sohibi ekanligi bilan umumiy jihatlariga ega.

Badiiy asarda obrazlar va voqealar tizimi bosh qahramon atrofida to'planadi. Bu xususiyat “Boburnoma” va “Shajarayi turk”-da ham bor. Demak, asarlarda badiiylilikning yana bir jihati bosh qahramonning mavjudligidir. Bobur va Abulg'ozī obrazlarining shakllanish tadriji ham bir-biriga o'xshash, ayni paytda o'ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turadi. Boburning Farg'ona taxtiga chiqishi, otasining o'limi bilan bog'liq bo'lsa, Abulg'ozining esa taxtni egallashi juda murakkab. Uning taxtga birinchi chiqishi qiyinchiliklar va kurashlar asosida 40 yoshiga to'g'ri kelsa, Boburning taxtga chiqishi o'sha davr qonun-qoidasiga asosan vorislik yo'li bilan 12 yoshida amalga oshgan edi. Xo'sh, biz “Boburnoma” va “Shajarayi turk”ni o'qib, Bobur va Abulg'ozī haqida qanday tasavvurga ega bo'lamiz?

Bobur “Boburnoma”da asarni taxtga chiqishidan boshlaydi. Abulg'ozī esa o'zi haqida asar muqaddimasida hech narsa demaydi, balki asarning yozilish sababiga qisqacha to'xtalib o'tadi. Birinchi bobni esa qadimdan (Odam Atodan) boshlaydi. O'zi haqidagi to'liq ma'lumotlarni asarning so'nggida yoritadi. Bundan ayonki, Bobur asarni an'anaviy yo'ldan emas, balki o'zining realistik uslubiga tayangan holda ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan kunidan boshlaydi. Go'yo bosh qahramon Bobur voqealar tizimining (temuriylar sulolasining vakili sifatida) markazida turadi. Abulg'ozī esa

o'z tarixini yozishda an'anaviy yo'ldan boradi. U "o'z tarixi" deganda butun bir insoniyatning paydo bo'lishi va yaratilishini tushunadi. Odam Atoning paydo bo'lishidan boshlab, o'z davriga qadar bo'lgan voqe'likni o'z ajdodlarining tarixi deb biladi va asarni ibtidodan boshlaydi.

"Boburnoma" va "Shajarayi turk"ni o'qish orqali mualliflarning faqat ijtimoiy-siyosiy faoliyatini emas, balki ularning shaxsiy sifatlari va ijodiy faoliyatlari haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Mualliflarning o'z taxtlarini mustahkamlash borasida olib borgan tinimsiz kurashlari, mamlakatni va qo'shinni boshqarishdagi o'ziga xos siyosati, oddiy xalqqa munosabati va yurtni obod qilishdagi sa'y-harakatlarini o'quvchi mutolaa davomida qalban his qilib boradi.

Bobur "Boburnoma"da Ahmad Tanbal bilan bo'lgan jangini batafsil tasvirlaydi: *"Ushbu holatta o'ng butumg'a sheba o'qi bila o'tkara otilar. Boshimda duvulg'a bo'rki edi, Tanbal boshimg'a chopti, boshim qilich zarbidin karaxt bo'ldi. Bovujudkim duvulg'a bo'rkining bir tori kesilmadi, boshimg'a xeyla yara bo'ldi. Qilichni boldog'lamaydur erdim, qinida edi, qilich sug'urg'uncha fursat bo'lmadi. Qalin dushman ichida yakka va yolg'uz qoldim. Turar mahal emas edi, jilavni yondurdum, yana bir qilich ham o'qlarimg'a tushubtur. Yetti-sekkiz qadam yonib edimkim, yayog' uch kishi manga qotildi"* [Бобур 2002, 93].

Bobur ayovsiz janglarning og'ir oqibatlarini boshidan kechirishiga qaramay, o'z maqsadi yo'lida mardonavor kurash olib boradi. Boburdagi bu xislat Abulg'ozining ham jang maydonidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Mana, bir misol: *"Jov qolmay otqulab gala yurub erdi, birisi o'q birlan og'zimga urdi, engaklarimning so'ngaklari pora-pora bo'ldi, og'zimning ichi to'la qon. Daryoning labi va yer qaling erdi. Bir ulug' yulg'unni urguldum. Jovning ko'zi meni ko'rmay, o'zga kishiga tushti. Shul vaqtda otimning oyoqi sichqonning inina kirib andaq yiqildim kim, otdin to'rt-besh qadam yiroq borib tushtum"* [Абулғози Баҳодирхон 1992, 168].

Bobur va Abulg'ozining jang maydonidagi bu tasvirlar o'quvchida ularga nisbatan mehr-shafqat uyg'otadi. Dushmandan qattiq azob chekkan zabardast bu ikki sarkarda, o'zlarining qat'iy bardoshi va matonati bilan kitobxonni lol qoldiradi.

"Boburnoma"ni o'qish orqali Boburning Farg'ona taxtini olgani, Andijonda Ahmad Tanbal bilan kurashgani, uch marotaba Samarqandga yurish qilgani, Kobulni egallab, Hindistonga besh marotaba yurish qilgani, mustahkam "Boburiylar imperiyasi"ni tuzgani; oila muhiti, farzandlari haqida ham, betob kunlari to'g'risida

ham bilib olamiz.

“Shajarayi turk”dan esa Abulg’ozining akalari – Xabash va Elbars Sultonlarga qarshi kurashganini, otasi bilan birga jang qilganini ham, yov g’olib kelgach, qochganini ham, engagidan o’q yeb, suyaklari pora-pora bo’lganini ham, o’lim holatidan bazo’r qutilib, bir qancha vaqt quvg’inda yashaganini ham bilamiz.

Bobur va Abulg’ozi yoshligidan harbiy san’atni mukammal o’rgana boshlagan. Har ikkalasi ham saroy muhitida o’sgani sababli harbiy harakatlarni ko’rgan va eshitgan. Sababi ular davlat boshliqlarining farzandi. Har ikki sarkarda ham yoshligidan jasoratli, qo’rqmas va mard yigit bo’lib tarbiya topgan. Ana shu tarbiya va tug’ma iste’dod natijasida ular botir sarkarda-lashkarboshi bo’lib tanildilar. Bobur o’z tajribalari asosida “Harb ishi” nomli asarini yaratdi. Harb sohibi, sarkarda sifatida shuhrat topdi. Bobur va Abulg’ozining ijtimoiy faoliyati yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlash bilan birga, ularning shaxsiy sifatlarini yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu fikrning isboti sifatida “Boburnoma”da keltirilgan ushbu voqeani eslash mumkin: *“... Tonglasi xabar keldikim, No’yon ko’kaltosh jardin mastliqta yiqilib o’lubtur. Haqnazarnikim, No’yonning tuqqan tag’oyisi edi, yana bir jam’ bila yiborildi, borib No’yonning yiqilg’an yeridin topib ehtiyot qilib, No’yonni Piskentga tufroqqa topshurub keldilar. Bular suhbat tutqan yerdin bir o’q otimi bir baland jarning ostida No’yonning o’lugini topibdurlar. ... Manga g’arib ta’sir qildi, kam kishining favtig’a muncha mutaassir bo’lub edim. Bir hafta o’n kungacha hamisha yig’lardim”* [Бобур 2002, 88].

Boburning qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarida aytishicha, Humoyun betob bo’lib qolganida, Bobur *“... Xudoyo, agar jon o’rniga jon berish mumkin bo’lsa, menki Boburman, umri-jonimni Humoyunga bag’ishlayman”* [Гулбаданбегим 1959, 38], – deb yig’lar ekan. Shu kabi o’nlab misollar orqali Boburning shaxsiy fazilatlarini kashf qilib boramiz. Xayriddin Sulton aytganidek, Bobur – mehribon va donishmand ota. Uning farzandlariga pand-nasihatlarida shoh va shoirning buyuk insoniy qiyofasi yaqqol ko’rinib turadi [Султон 1997, 373].

Boburdagi insoniy sifatlar Abulg’ozida ham ko’rinadi. Biroq Abulg’ozida bu sifatlar ochiq-oydin namoyon bo’lavermaydi, balki voqealarni tasvirlash jarayonida, kishilarga munosabatida va tashabbuskorligida ko’rinadi. Otasi va aka-ukalariga bo’lgan munosabatlarida uning insoniyligi, haqparvarligi, olijanob va kelajakni ko’ra olish kabi qobiliyatlari yorqin aks etadi. Abulg’ozi imoni

mustahkam, e'tiqodli kishi edi. Uning bu jihati Boburga ham xosdir. Chunki Bobur ham o'z davrining din peshvolari – Xoja Ahrori Valiy kabi din va tasavvuf ahllariga irodati bo'lgan kishi edi.

“Abulg'ozī she'rlar ham yozgan. “Shajarayi tarokima” kitobida ikkita she'r o'zbek tilida, “Shajarayi turk”da uchta she'r, bitta she'ri o'zbek tilida, ikkitasi fors tilida, “Manofe' ul-inson” asarida bitta fors tilida yozilgan she'rlar o'rin olgan bo'lib, sakson misrani tashkil etadi” [Худойназаров 1994, 46].

Abulg'ozī Bahodirxonning o'z she'rlaridan devon tuzganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq, bu ma'lumotlar hanuzgacha ilmiy asoslanmagan. Qizig'i shundaki, Abulg'ozī o'z memuarida bu haqda ma'lumot bermaydi. Biroq “Shajarayi turk”da uning she'riyatga bo'lgan qiziqishi sezilib turadi. Abulg'ozī Qoraxonning o'g'li O'g'uzxon haqida quyidagi to'rtlikni keltiradi:

*O'shal bir yashar o'g'lon anda ravon,
Kelib tilga tedi: “Bilinglar ayon,
Otimdur o'g'uz Xisravi nomvar,
Bilinglar yaqin barcha ahli hunar”* [Абулғозий 1992, 18].

Mazkur she'rning poetik uslubi “Shajarayi turk”ning yaxlit ruhiga singib ketgan. Jumalari oddiy, qofiyalari sodda. “Ravon-ayon”, “nomvar-hunar” so'zlari she'rda o'ziga xos tanlanganki, bu qahramon (O'g'uzxon)ning qiyofasini ko'z o'ngimizda jonlantiradi. She'r mazmunining tiniqligi, shakldagi soddalik asarning badiiy qimmatini oshiradi.

“Shajarayi tarokima”da o'zbek tilidagi ikki she'r 30 misrani, “Shajarayi turk”dagi to'rt she'r 30 misrani tashkil etadi. Abulg'ozī asar muqaddimasida “*masnaviyyot va qasoyid va g'azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik*”larini kamtarlik bilan qayd qilib o'tgan edilar. Bu Abulg'ozining masnaviy, qasida, ruboiy, g'azal ilmini ham mukammal bilishini anglatadi.

Shoh va shoirlik

Sharqda shoh va shoirlik an'anasi uzoq tarixga ega. Xalqimiz tarixida ham shoh, ham shoir bo'lgan shaxslar juda ko'p uchraydi. Biroq ular ichida Zahiriddin Bobur o'zgacha namoyon bo'ladi. U hayotda shoh bo'lsa-da, she'riyatda nolavor kuylovchi oshiq, adolat va haqiqatni e'zozlovchi inson, ishq va muhabbatni ulug'lovchi shoir sifatida ko'rinadi. Zahiriddin Muhammad Boburning she'rlarini shartli ravishda ikki devon, ya'ni Kobul va Hindiston devonlariga ajratish mumkin [Боёров 2004]. Bobur lirikasining asosiy qismi

bilan tanishmiz. Bir necha gʻazal va ruboiylarining yaratilish tarixi “Boburnoma”da keltirib oʻtilgan.

Bobur Hiriyan Kobulga qaytayotganida qalin qor yogʻib, yoʻllar toʻsilib qolgan. Oʻzi otdan tushib, qor tepib yoʻl ochgan. Koʻp mashaqqatlar tortib, ruhan ezilgan shoir quyidagi gʻazalini yozadi:

*Charxning men koʻrmagan javru jafosi qoldimu,
Xasta koʻnglum chekmagan dardu balosi qoldimu* [Boʻbyp 2002, 147].

Bobur va Abulgʻozi asarlarida lirik qahramon sifatida ham koʻzga tashlanadi. Bobur asarida rang-barang gʻazal va ruboiylarni keltirsa, Abulgʻozi ajoyib tuyuq va masnaviylarni taqdim etadi. Ana shunday sheʼriy parchalar orqali “Boburnoma” va “Shajarayi turk”da ikki muallifning shoirlik mahorati bilan ham tanishib boramiz.

“Boburnoma”ning soʻnggi sahifalarini yozgan muallifning aytishicha; *“Va maholdurkim, ul podshohi qobilning yaxshiligʻlarini aytgan bilan va bitigan bilan tugangay. Lekin mujammal (eng goʻzali — A.M.) bukim, sekkiz sifati asil aning zotigʻa muttasil edi: birisi bukim najhati baland edi – (yaxshi xulqli edi – A.M.); ikkinchisi, himmati arjumand edi – (himmati baland edi – A.M.); uchumchisi, viloyat olmogʻ; toʻrtumchisi, viloyat saxlamogʻ; beshumchisi, maʼmurligʻ – (mamlakatni obod qilmoq – A.M.); oltimchisi, rafohiyat niyati Tengri taolo bandalarigʻa (Tangri taolo bandalarining ahvoli va farovonligini yaxshilash niyatida – A.M.); yettimchisi, cherikni (askar, qoʻshin) koʻngli (ni) qoʻlgʻa olmoq; sekkizimchisi, adolat qilmoq”* [Boʻbyp 2002, 267].

Sanab oʻtilgan sakkizta sifat ham “Boburnoma”da keltirilgan voqealar mohiyatida oʻz ifodasini topgan. Qizigʻi shundaki, agar Boburga oʻz asarini oʻzi tugatishi nasib etganida, bu sifatlarni bayon qilmas edimi? Bu bizga qorongʻu. Biroq Abulgʻozi “Shajarayi turk” muqaddimasida oʻzining sifatlarini kamtarlik va xijolatomuzlik bilan qayd qiladi: *“Emdi koʻnglingizga kelmasunkim, faqir taraf tutub taʼrif etgan boʻlgʻayman. Bu faqirgʻa xudoyi taolo inoyat qilib koʻb nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiygarlikning (qoʻmondonlik – A.M.) qonuni va yusunikim, nechuk otlanmoq va yurumak va yovgʻa yosoq (toʻsiq – A.M.) yasamoq, koʻp birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, doʻstgʻa, dushmangʻa nechuk soʻzlashmak. Ikkinchisi, masnaviyot va qasoyid va gʻazaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ashʻorni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lugʻatlarning maʼnosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahindin to bu damgacha Arabistonda Eron va Turonda va Moʻgʻulistonda oʻtgan podshohlarning otlari va*

umrlarining va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik" [Абулфозий 1992, 12].

"Boburnoma"dagi Bobur obrazi va hayotdagi Bobur o'rtasida uzviylik va uyg'unlik tomonlari juda ko'p. Biroq ba'zi bir o'rinlarda muallif o'z obrazini to'laligicha yoritib bermaydi. O'zining voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatini sir tutishga urinadi. Tarixdan bizga ma'lumki, (o'sha davrda yaratilgan asarlar nazarda tutilyapti) "Boburnoma"da berilmay, qolgan ayrim ma'lumotlar tarix kitoblarida boshqa ijodkorlar tomonidan talqin etilgan. Asardagi Abulg'ozini va hayotdagi Abulg'ozini obrazlarida ham xuddi shu kabi juz'iy farqlar mavjud.

Xullas, Bobur va Abulg'ozini obrazlari "Boburnoma" va "Shajarayi turk" asarlarida bosh qahramon sifatida muhim o'rin tutadi. Ikki muallif o'z memuarlarida (ba'zi juz'iy kamchiliklarni e'tiborga olmayotgan) hayotlarini to'la aks ettira olgan. Chunki, "memuar asarlar qalamga olingan davrning real voqea-hodisalarini aks ettirishi bilan birga, uning muallifi o'sha voqea-hodisalarning ishtirokchisi va guvohi bo'lishi lozim. Shundagina bu voqealar o'ziga xos memuarlikni yuzaga chiqaradi. Muallifning memuar voqea-hodisalarini haqqoniy tarzda, o'z holicha bayon etishi, uning o'ziga xos mahoratini belgilaydi. Xuddi shu jihatlarning mushtarakligida tarixga hamroh bo'lib qoladigan memuar asar yaratish mumkin bo'ladi" [Абражеев 1946, 97]. Bobur va Abulg'ozini shu toifadagi san'atkorlardir. Ummuman olganda, "Boburnoma" va "Shajarayi turk" bevosita mualliflar hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning ichki kechinmalari, ehtirolari, bilimi va dunyoqarashi, badiiy mahoratini o'zida namoyon etadi.

Tarixiy voqea-hodisalarga munosabat masalasi

"Boburnoma" va "Shajarayi turk" asarlarida muallifning "men"i Bobur va Abulg'ozining tarixiy voqea-hodisalarga munosabatida, tarixiy shaxslarga bergan talqin va tahlilida yorqinroq ko'rinish boshlaydi. Jumladan, Bobur tarixiy voqea-hodisalarini o'z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan sharhlab munosabat bildiradi. Masalan, Xusravshoh haqida shunday yozadi: *"Xusravshoh edi. Turkistonliq Qipchoqdindur... Agarchi namozi qilur edi va taomda parhiz qilur edi, vale tiyra va fosiq edi, gavdan va befahm va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh kun o'tar dunyo uchun bir o'zi o'sturg'on valine'matzodasini ko'r qildi, yana birini o'lturdi. Tengri qoshida osiy va xalq oldida mardud bo'lubdur. Domani qiyomatgacha la'nat va nafrin sazovori bo'ldi. Bu o'tar dunyo uchun mundoq yomon ishlar qildi"* [Бобур 2002, 49-50].

Bobur bu jihatdan Xusravshohga obyektiv munosabatda bo'ladi. Biz tarixdan yaxshi bilamizki, Xusravshoh davrida xalqni talon-taroj qilish, ezish va kishilar o'rtasida axloqiy buzuvchiliklar ko'p bo'lgan. Bunday ishlarning boshida Xusravshohning o'zi turgan. Uning Mas'ud mirzoni ko'r qilib, Boysung'ur mirzoni o'ldirishi har bir kishida unga nisbatan nafrat uyg'otadi. Bobur Xusravshohning fitna va fasodini, ablahona kirdikorlarini fosh etar ekan, o'z nafratini quyidagicha ifoda etadi: *"Har kim Xusravshohning bu af'olini eshitsa, la'nat qilsun. Bu af'olini eshitib la'nat qilmog'on ham sazovori la'nat bo'lsun!"* [Bo6yp 2002, 66].

Ko'rinadiki, Bobur yuz bergan voqealarga hech qachon befarq bo'lmagan. Ayniqsa, ota va o'g'il, shoh va shahzoda munosabatlariga yuzaki qaragan emas. Shu o'rinda "Boburnoma" dagi yana bir tarixiy voqea diqqatni tortadi: *"... Ulug'bek mirzodin o'g'li Abdullatif mirzo oldi. Bu besh kunlik o'tar dunyo uchun andoq donishmand va qari otasini shahid qildi. ... Agarchi o'zi ham besh-olti oy besh saltanat qilmadi, bu bayt mashhurdurkim:*

Padarkush podshohiro nashoyad,

Agar shoyad ba shash mohash napoyad" [Bo6yp 2002, 62].

Bobur Nizomiyni "Padarkush podshohlikka yaramaydi. Podshoh bo'lganda ham olti oydan ortiq turolmaydi", degan hikmatli baytini keltirib, Abdullatifning ham yomon otliq bo'lib ketganini aytadi va avlodlarini ogohlantiradi.

Ulug'bek 853-hijriy (1449) yilda o'g'li Abdullatif tomonidan o'ldirilgan. Bobur bu voqeaning shohidi bo'lmasa-da, unga to'g'ri munosabat bildiradi. Bu esa Boburning har bir voqeaning tagzamiyiga yetib, puxta xulosa chiqarganligidan dalolat beradi. U tarixiy voqealarni tasvirlar ekan goh kuzatuvchi, goh ishtirokchi, goh chetdan turib munosabat bildiruvchi shaxs sifatida ko'rinib turadi. "Boburnoma" da barcha tarixiy voqea-hodisalar (ba'zi juz'iy kamchiliklarni e'tiborga olmaganida) tarixiy haqiqatga aylangan.

Bobur Movarounnahrda voqealarni tasvirlab, ularga o'ziga xos tarzda munosabat bildiradi, ya'ni ularni Hindistondagi voqealar tafsiloti bilan qorishtirib (qiyoslab) bayon qiladi. Kobulda yuz bergan ba'zi yillar voqealari asarda bayon qilinmagan. (910 (1504-1505), 915 (1509-1510), 924 (1518-1519), 927 (1520-1521), 928 (1521-1522), 930 (1523-1524), 931 (1524-1525). 15-16 yil oralig'idagi voqealarning tushib qolgani haqida turli fikrlar mavjud [Eky6ov 1966, 47-59]. Ayrim olimlarning fikricha, bu sahifalar jangu jadallarda yo'qolgan. Biroq ayrim olimlarning ta'kidlashicha, Bobur har bir yilga alohida to'xtalishni maqsad qilib qo'ymagan,

bu muallifning o'ziga xos usulidir [Валихўжаев 1978, 67-68]. Biz ham yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, Bobur Kobulda yuz bergan tarixiy voqea-hodisalarni yilma-yil bayon qilishni maqsad qilmagan. Balki, yaxlit bir asar yaratishni ko'zda tutgan. Hindistonda yuz bergan tarixiy voqealar esa Bobur tomonidan ancha mufassal yoritilgan va sharhlangan. Bunga asosiy sabab muallifning so'nggi hayoti va faoliyati bevosita Hindiston bilan bog'liq bo'lganidir.

Muallifning voqealarga munosabatini o'rganishda davom etib, asardagi yana bir voqea sharhini berishni lozim topdik. Bobur Sulton Ali mirzo Samarqandni Shayboniylarga bergani to'g'risidagi quyidagi voqeani batafsil bayon qiladi: *"Tafsili budurkim, Sulton Ali mirzoning onasi Zuhra begi og'a bilmasligidin va beaqlig'idin maxfiy Shayboniylarga kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniylar ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniylarga Samarqandni bergay. Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sulton Ali mirzoga bergay. Bu ra'ydin Abu Yusuf arg'unning xabari bor ekandur, balki bu ra'yini ko'rsatguvchi o'shul g'addor ekandur"* [Бобур 2002, 77].

Shayboniylar Zuhra bining va'dasiga binoan kelib, Samarqandni oladi. Biroq, Shayboniylar Sulton Ali mirzoni o'ldiradi. Bu voqealarni Bobur to'raligicha bayon qilar ekan, Zuhra bing va Shayboniylarga ham o'z munosabatini bildiradi. O'z farzandining umriga zavol bo'lgan ayol haqida, *"bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonumonin barbod berdi. Shayboniylar bir zarra parvo ham qilmadi, balki g'uma-g'unchachidek ko'zga ilmasi"* [Бобур 2002, 78], - deydi.

"Tarix to'qqiz yuz o'n to'rtta bir chahorbog' soldim", "Tarix 925 dakim, Chag'ansaroy nikim, kelib oldim, tavof qilib edim", "Voqea uzmokim, jum'a kuni rabiul-avval oyining o'n oltisida tarix to'qqiz yuz o'ttuz uchta ro'y berdi" kabi jumalardan shuni anglash mumkinki, Bobur har bir voqeani tasvirlab berish jarayonida aniq dalillarga tayanib ish ko'rgan.

"Shajarayi turk"dagi tarixiy voqea-hodisalarga muallifning munosabati haqida so'z yuritish ekanmiz, avvalambor, asardagi tarixiy voqealarni: an'anaviy bayon qilingan voqealar hamda sof tarixiy voqealarga ajratib o'rganish lozim bo'ladi.

An'anaviy bayon qilingan voqealar tasvirida romantik bayon tasviri, jangovar kayfiyat birinchi o'ringa ko'tariladi. Asarda bayon etilgan sof tarixiy voqealar tasvirida esa kishi qalbini goho qayg'u-alam bilan qoplovchi, goho xushnud qiluvchi realistik bayon ustunlik qiladi. Birinchi turdagi voqea-hodisalarga eng

qadimgi davr voqealaridan tortib, O'g'uzxon va Chingizxon davri voqealarigacha kiritish mumkin. An'anaviy bayon qilingan tarixiy voqealar deyishimizning asosiy sababi, muallif bu davr voqealarini o'z ko'zi bilan ko'rmagan yoki ishtirokchisi bo'lmagan. Abulg'ozi bu ma'lumotlarni o'zidan oldin yaratilgan tarixiy manbalardan olib, ijodiy ishlagan. Biroq asarda shunday tarixiy voqea-hodisalar tasviri borki, muallif bu voqealarning bevosita ishtirokchisi bo'lgan (IX bob).

Xalq og'zaki ijodida mavjud rivoyatlarni Abulg'ozi tarixiy voqealar zahirida paydo bo'lganini ta'kidlab, ularni tarixiy voqea-hodisalarga bog'lab tasvirlaydi. Chunonchi, asarning ikkinchi bobida tarixiy voqealar tasviri rivoyatlar bilan qorishiq holda aks ettirilgan. Bunda muallif xalq orasidagi “to'qqiz” o'lchovining tarixiy voqeadan kelib chiqqanini aytadi: *“Asli lafzi mo'g'ul mungul turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora mo'g'ul tedilar ... Bu toifadin to'qqiz kishi podshohlik qildilar. Avvali Mo'g'ulxon oxiri Elxon. Sharafiddin Yazdiy “Zafarnoma”ning muqaddimasinda aytib turur: Turkxalqining ichinda rasm turur har nimarsani to'qqiz qilmoq. Ul to'qqizni mo'g'ulning to'qqiz xonining yuzidan olib turur”* [Абулғозий 1992, 17].

Muallif bu o'rinda Sharafiddin Ali Yazdiy ma'lumotlariga tayangan, uning fikrlarini tasdiqlagan. Bu bilan Abulg'ozi keltirgan rivoyat tarixiy voqeaga mos kelmaydi deyishdan yiroqmiz. Kitobdan-kitobga ko'chirilib kelinayotgan bu rivoyatning tarixiy haqiqatga mos jihatlari ham bor. Abulg'ozi afsona va rivoyatlarni qorishtirib haqiqatga yaqin bo'lgan voqealarni bayon qiladi. Bular jumlasiga tuzdan foydalanishga oid rivoyat hamda urug' nomlarining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni kiritsa bo'ladi. Uchinchi bobdan yettinchi bobgacha, ya'ni Chingizxonning tug'ilganidan avlod-ajdodlarining zikrigacha bo'lgan sahifalarda Abulg'ozi tarixiy voqealarni ijodiy ishlab hikoya tarzida bayon qiladi. Masalan, “Chingizxonning zikri” sahifasida Abulg'ozi Chingizxonni *“tarix hijriy olti yuzda sichqon yilinda o'tlanib Tayangxon ustiga”* yurish qilganini aytadi. Chingizxon bilan Tayangxon o'rtasidagi jangni tasvirlab yarim haqiqiy tarixiy voqea, yarim hikoyatga yaqin bo'lgan quyidagi ma'lumotni bayon qiladi: *“... Taqi ertadin to kun botquncha urushtilar. Tayangxon og'ir yarali bo'ldi. Nayman cheriki qochti. Tayangxonni otg'a olib yuriy bilmadilar. Urush tog'ning etakinda tushub erdi. Tayangxonni tog'ning ustiga olib chiqdilar. Xondin ko'p so'z so'rdilar, hech javob bera olmadi. Xondin umid uzgandin so'ng naymanning beklari aytdi: “To'radin va ev, eldin ayrilib, yot yurtg'a borib qo'r qidirib yuruguncha o'lgan yaxshi”, teb, Tayangxonni shul yerda qo'yub tog'dan tushub Chingizxon*

birlan urushtilar. Oz qolg'anda Chingizxon aytdi: "Sizlarning qon va molingizni bag'ishladim. Navkar shunday kerak, tuzni haqladingiz. Emdi yoy sunub keling", teb besh-olti martaba aytdi. Qabul qilmadilar. Bir qolg'uncha urusha-urusha o'ldilar. Bularning o'lganin ko'rgandin so'ng Tayangxonning qatinda qo'yg'an kishilar xonni otning oldina olib qochtilar. Boraturub o'ldi" [Абулғозий 1992, 54-55].

XVII asr tarixiy voqealarining bayoniga kelib, muallifning tasvir uslubi o'zgaradi. Tarixiy voqealardagi an'anaviy bayon o'rnini realistik xarakter egallaydi. To'qqizinchi bobda bayon etilgan tarixiy voqea-hodisalarni muallif bevosita o'zi ko'rgan, shohidi va ishtirokchisi bo'lgan. "Arab Muhammadxonning podshohliqining zikri" sahifasida Abulg'ozni otasining yurishlari, o'ziga xos siyosati, kurashlari, avlodi hamda o'g'illari bilan bo'lgan munosabatlarini haqqoniy tarixiy voqea sifatida aks ettiradi. Asarning so'nggida esa o'zining hayoti bilan bog'liq voqea-hodisalarni birma-bir zikr qiladi.

Bobur va Abulg'ozining tarixiy voqea-hodisalarni bayon qilishi va ularga munosabat bildirishi o'ziga xosdir. "Boburnoma"da Bobur voqea sodir bo'lgan yilni, oyni, kunni aniq ko'rsatib bayon qilsa, Abulg'ozni avval voqeani to'liq tafsiloti va voqea so'nggida sodir bo'lgan yilini (ba'zi o'rinlarda oyini) ko'rsatish bilan kifoyalanadi.

Masalan, Abulg'ozni 9-bobda *"Muhammad Jo'chi Mirzo Shohruhiyaga bordi. Abusaid Mirzo bu xabarlarni eshitib ketidan bordi. Ul Shohruhiyaning qal'asina qabaldi. Abusaid Mirzo to'rt oy qabab o'ltirdi, olabilmadi. Axir Xoja Ubayd Samarqanddin borib orada yurub ont ichib Muhammad Jo'chi mirzoni qal'adan chiqarib, Abusaid mirzog'a ko'runush qildurdi. Ul so'ziga vafo qilib Muhammad Jo'chini o'ltirmadi. Ammo Xurosonning Ixtiyoriddin tegan qal'asinda band qilib qo'ydi. Bu voqea tarix sakkiz yuz oltmishda erdi"* [Абулғозий 1992, 117], – deb yozadi.

Bobur 934-hijriy (1528) yil voqealarida *"Panjshanba kuni, rabiul oxir oyining ikkisida men daryodin o'tdim"* [Бобур 2002, 233], – deb voqeaning yili, oyi va kunini aniq ko'rsatadi.

"Har qanday muallifning ham dunyoqarashi o'z davri ijtimoiy tafakkuri va madaniy saviyasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, davr ijodkor dunyoqarashida o'chmas iz qoldiradi. Shu tufayli o'sha ijodkorning yaratgan asarlarida o'z davri bilan bog'liq bo'lgan ayrim cheklanganliklar sodir bo'lishi tabiiydir. Muallif tarixiy voqealarni xolis tasvirlashga qancha urinmasin, uning dunyoqarashidagi zaiflik hamda ayrim ikkilanishlar ba'zi tarixiy voqealar tafsilotlarini berishda muallifni tarafbozlik yo'li tomon toydiradi. Buning esa o'ziga xos tarixiy-siyosiy ildizlari yoki sabablari

mavjuddir” [Ёкубов 1966, 50]. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abulg’ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlari ham, albatta, bundan mustasno emas.

Bobur “Boburnoma”da keltirib o’tgan ba’zi bir voqealar tasviri uning qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sida keltirilgan voqealardan farq qiladi. Bu masalaga S.Azimjonova “Humoyunnoma” kitobiga yozgan so’zboshisida to’xtalib o’tgan edi.

Samarqandning Shayboniyxon tomonidan 1501–1502-yillarda qamal qilinishi voqeasini Bobur shunday yozadi: *“Bu mahalda Shayboqxon sulh so’zini orag’a soldi. Agar bir tarafdand umidvorlig’ bo’lsa edi, yo xaxira bo’lsa, sulh so’ziga kim quloq solur edi. Zarurat bo’ldi, sulhgina qilib, kechadan ikki paxar bo’la yovushub edikim, Shayxzoda darvozasiadin chiqildi. Volidam xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun kishi chiqti: biri Bichka xalifa edi, yana biri Minglik ko’galdosh edi. Mening egachim Xonzodabegim ushbu chiqqonda Shayboqxonning iligiga tushti ...”* [Бобур 2002, 86].

Ushbu voqeani Gulbadanbegim esa *“Otam hazratlari olti oy davomida Samarqandni olmoqqa urindilar, lekin maqsadlariga yeta olmadilar”* [Гулбаданбегим 1959, 24], – deb yozadi. Shu vaqtda Shohibekxon *“agar o’z singlingiz (aslida opasi) Xonzoda begimni menga bersangiz oramizda sulh tuziladi va ittifoqlik aloqalari o’rnatiladi”, – deb aytkezib yubordi. Oxir Xonzoda begimni o’sha xonga berib, o’zlari qaytishlari zarur bo’ldi”, – deb tasvirleydi* [Гулбаданбегим 1959, 24-25]. Demak, Bobur asarida, o’z singlisi (aslida opasi) Xonzoda begimni, o’z qo’li bilan Shayboniyxonga topshirganini tan olgisi kelmay, *“iligiga tushdi”* deb yozadi. Lekin Mirzo Haydar o’z asarida *“uning qarshilik ko’rsatishga hech chorasi qolmay, Shohibek bilan sulh tuzib, o’z opasi Xonzodani unga berdi”* – deb, Gulbadanbegim fikrini tasdiqlaydi [Болтабоев 2004, 20-21].

Tarixiy voqealarni bayon qilishdagi farqlar siyosiy voqealar tafsiloti va Rano Sango jangi hikoyasida ham yaqqol ko’rinadi. Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy voqea-hodisalarni bayon qilishdagi noaniqlik Abulg’ozining ham voqealarni bayon qilishi jarayonida uchraydi. Jumladan, Abulg’ozi asarining 9-bobida *“... Temurbiy avlodindin Movarounnahrda Abusaid mirzo o’z qarindoshlarindin Abdullatifmirzoni o’lturubtur. Taqi yurtg’a ega bo’lubtur”* [Абулфозий 1992, 116], – deb yozadi. Vaholanki, “Boburnoma”da bu voqeaning tafsiloti boshqacha. Bobur Ulug’bek mirzoning o’g’li Abdullatif tomonidan o’ldirilishini aytib, shu voqea jarayonida Abdullatifning olti oy taxt boshqargani va Bobo Husayn tomonidan o’ldirilganini ta’kidlaydi [Бобур 2002, 62]. Demak, bu o’rinda, Abulg’ozi tarixiy

voqeani noto'g'ri yoritgan. Abulg'ozini o'z nuqtayi nazari asosida tarixiy voqelikka munosabat bildirgan. U ko'plab tarixiy kitoblarni (18 ta tarix kitobi) o'qib-o'rgangan va o'z davri dunyoqarashi asosida ma'lum xulosaga keladi. Eng asosiysi u o'z xulosalariga qattiq ishonadi. Shu boisdan ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yadi.

Xulosa

Bobur va Abulg'ozining tarixiy voqea-hodisalarga munosabati masalasini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin:

Bobur "Boburnoma"dagi tarixiy voqealarni beg'araz va rostgo'ylik bilan bayon etadi. Har bir voqeani mohiyatan to'g'ri sharhlashga erishadi. "Boburnoma"da Bobur voqea sodir bo'lgan yil, oy va kunni aniq ko'rsatadi;

Abulg'ozini 9-bobgacha bo'lgan tarixiy voqealarni ijodiy ishlab, an'anaviy tarzda bayon qiladi. Voqeaning to'liq tafsilini berib, voqea so'nggida sodir bo'lgan yilini (ba'zi o'rinlarda oyini) ko'rsatish bilan kifoyalanadi;

Bobur va Abulg'ozini tarixiy voqea-hodisalarga o'z davri nuqtayi nazari, dunyoqarashi asosida munosabat bildiradi. Har ikki muallif ham ayrim tarixiy voqealarni aniq bayon etmaydi. Boburning bunday yo'l tutishini ijtimoiy-siyosiy sharoit taqozosi sifatida tushunish mumkin. Abulg'ozini esa tarixiy voqelikka, tarixiy shaxslarga munosabatida o'z qarashlariga qattiq ishonadi.

Adabiyotlar

- Абражеев, А. И. 1946. "Родословная тюрок и его автор". *Звезда Востока* 12: 68-76. Ташкент.
- Абулғозий. 1992. *Шажараи турк*. Тошкент: Чўлпон.
- Адабий тур ва жанрлар. 1987. Уч жилдлик. 2-жилд. Тошкент: Фан.
- Азимжонов, С., Байкова, Н. Б. 1959. Сўз боши. *Ҳумоюннома*. Тошкент: Фан.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2002. *Бобурнома*. Тошкент: Шарқ.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1960. *Шеърлар*. Нашрга тайёрловчи А.Қаюмов. Иккинчи нашр. Тошкент: Ўзадабийнашр.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2004. *Девон*. Кобул нашрига такмила (қўшимча). Нашрга тайёрловчи Шафиқа Ёрқин. Тошкент: Шарқ.
- Болтабоев, Ҳ. 2004. *Мумтоз сўз қадри*. Тошкент: Адолат.
- Гулбаданбегим. 1959. *Ҳумоюннома*. Тошкент: Фан.
- Дюришин, Д. 1979. *Теория сравнительного изучения литературы*. Москва: Прогресс.
- Қудратуллаев Ҳ. С. 1998. "Бобурнома"нинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили. Филол. фан. д-ри. дисс. Тошкент.
- Султон, Хайриддин. 1997. *Бобурийнома*. Маърифий роман. Тошкент: Шарқ.
- Тынянов, Ю. Н. 1977. *Поэтика. История литературы. Кино*. Москва: Наука.

- Валихўжаев, Б. 1978. "Заҳириддин Муҳаммад Бобур". *Ўзбек адабиёти тарихи*. 5 томлик. 3-том. Тошкент: Фан.
- Худойназаров, Ҳ. 1994. *Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Ёқубов, Ҳ. 1966. *Адибнинг маҳорати*. Тошкент: Фан.
- Чернышевский, Н. Г. 1974. *Собрание сочинений*. В 5 т. Т. 3: Литературная критика. Москва: Правда.

References

- Abrazheev, A. I. 1946. "Rodoslovnaja tjurok i ego avtor". *Zvezda Vostoka* 12: 68-76. Tashkent.
- Abulgoziy. 1992. *Shazharai turk*. Toshkent: Chulpon.
- Adabiy tur va janrlar*. 1987. Uch zhildlik. 2-zhild. Toshkent: Fan.
- Azimzhonova, S., Baykova, N. B. 1959. *Suz boshi. Humoyunnoma*. Toshkent: Fan.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 2002. *Boburnoma*. Toshkent: Sharq.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 1960. *Sherlar*. Nashrga tayyorlovchi A.Qajumov. Ikkinchi nashr. Toshkent: Uzadabiynashr.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 2004. *Devon*. Kobul nashriga takmila (qushimcha). Nashrga tajyorlovchi Shafiqa Jorqin. Toshkent: Sharq.
- Boltaboev, H. 2004. *Mumtoz suz qadri*. Toshkent: Adolat.
- Gulbadanbegim. 1959. *Humojunnoma*. Toshkent: Fan.
- Durishin, D. 1979. *Teorija sravnitel'nogo izuchenija literatury*. Moskva: Progress.
- Qudratullaev, H. S. 1998. "*Boburnoma*"ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili. Filol. fan. d-ri. diss. Toshkent.
- Sulton, Hayriddin. 1997. *Boburijnoma*. Marifij roman. Toshkent: Sharq.
- Tynjanov, Ju.N. 1977. *Pojetika. Istorija literatury. Kino*. Moskva: Nauka.
- Valihujayev, B. 1978. "Zahiriddin Muhammad Bobur". *Uzbek adabijoti tarihi*. 5 tomlik. 3-том. Toshkent: Fan.
- Hudoynazarov, Ҳ. 1994. *Abulgozi Bahodirhon tarihchi va adib*. Toshkent: Uzbekiston.
- Yoqubov, H. 1966. *Adibning mahorati*. Toshkent: Fan.
- Chernyshevskiy, N. G. 1974. *Sobranie sochinenij*: V 5 t. T. 3: Literaturnaja kritika. Moskva: Pravda.

Muallif haqida: *Abdullayeva Marg'uba Do'smiratovna* – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Iqtibos uchun: Abdullayeva, M. D. 2020. "Boburnoma" va "Shajarayi turk"da muallif obrazi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 45–61.

About the author: *Marguba D. Abdullaeva* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

For citation: Abdullaeva, M. D. 2020. "Author image in "Baburnoma" and "Shajarai turk". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 45–61.